

ALISHER NAVOIYGA E'TIBOR E'TIROFDA

Oqilov Ahrorjon Bahromjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi 3-kurs talabasi

E-mail: oqilovahrerjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek adabiyotining yetuk vakili shoir va mutasavvif Mir Alisher Navoiy Hazratlarining o'z diyorlarida va jahon hamjamiyatidagi o'rni va u kishiga qaratilgan e'tibor xususida

Kalit so'z: Hazrat Alisher Navoiy, Xamsanavislik, komil inson obrazi, Navoiy ijodini o'rganish, Navoiyshunoslik

Kirish

Dunyoda ko'p millat va elatlar bor. Ularning har biri o'ziga xos tarixi va madaniyatiga ega. Xalqning madaniy yutuqlari va cho'qqilari, albatta, shu xalqqa tegishli mashhur shaxslar, daholar nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zi madaniyat arboblari o'z xalqi va mintaqasi doirasida chegaralangan bo'lib, ularning shaxsi dunyo yuzini ko'rmagan va e'tiborga tushmagan.

Jahonni lol qoldirgan shaxslar tarix zarvaraqlarida ko'pchilikni tashkil qilsa-da, ulardan manfaat olish, ular ijodi va e'tiborining davomiyligi cheklangan bo'ladi. Lekin, shunday insonlar borki, ularning qilgan ishlari ijod namunalari davr o'tgan sari qiymati va ahamiyati tobora oshib boradi. Shunday buyuk insonlardan biri Hazrat Alisher Navoiy hisoblanadi.

Alisher Navoiyning keng jamoatchilikka tanilishiga xizmat qilgan eng asosiy jihat ul zot tomonidan yozilgan juda ko'plab g'azallar, ruboiylar, tuyuqlar va boshqa shu kabi she'riy janrlar hisoblanadi[4].

Asosiy qism

Alisher Navoiy ham she'riyatda, ham nasrda, ham tasavvufda, ham insoniylikda barchaga ibrat namunasini ko'rsata olgan etalon shaxs hisoblanadi. U kishini har davrda o'z qadr-qimmatini ham ijodi, ham umr yo'li orqali anglatib his qildirib kelgan. Shu boisdan Hazratning yodi va u kishinig yorqin siymosi o'z davrida ham bugungi kunda munosib e'tiborga sazovor bo'lmoqda.

Alisher Navoiy haqida ma'lumotar keltirilgan asarlarni uch qismga bo'lish mumkin. Bular:

1. Alisher Navoiy haqidagi xos asarlar;
2. Doston va tarixiy asarlardagi Navoiyga bag'ishlangan qismlar;
3. Tazkira va ilmiy asarlar[1].

Alisher Navoiy bilan bir davrda yashagan, biroq ko‘rishish baxtiga muyassar bo‘lmagan, shunga qaramay Hazratga chin muhabbat qo‘ygan ulug‘ shoir va ulkan saltanat hamda sulola rahbari Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining tarixiy memuar asari bo‘lmish “Boburnoma”da Navoiy haqida quyidagilarni yozadi:

“Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she‘r aytubdirilar, hech kim ancha ko‘p va xo‘b aytqan emas...” [2]

Bundan ko‘rinib turadiki ul zotning dovrug‘i va hayoti hatto olisda yurgan insonlarni-da ilhomlantirgan va muhabbatlariga sazovor etgan.

Mirxondning avlodi hisoblanmish G‘iyosiddin Humomiddin Xondamir o‘zining “Makorim ul-axloq” ya’ni “Olijanob xulqlar” asarining “She‘r fazilati va shoirlarning yuksak martabalari haqida” bobida quyidagilarni yozadi:

“Ul Hazrat isde‘dodining kuchliligi va qobiliyatining yuksakligi tufayli har ikkala tilda – turkiyda va forsiy tillarda shunday she‘r yozish sharafiga muyassar bo‘lgan bo‘lsada, biroq uning o‘tkir ta‘bi forsiydan ko‘ra turkiyga ko‘proq mayl ko‘rsatgan edi...” [3]

Bu misrlarning yuqorisida Xondamir Navoiyga bir masnaviy bag‘ishlab, Hazrat obrazini yoritib beradi.

Akademik I. Sulton ta‘rifi bilan aytganda: ““Makorim ul-axloq”da Navoiyning biografiyasi emas, balki uning tarixi xarakteristikasi masalasi birinchi o‘rinda turadi”. [1]

Hazrat Navoiy haqida uning zamondoshi va ustoz Abdurahmon Jomiy o‘zining “Layli va majnun” dostonida ham aytib o‘tgan.

Keyingi davrlarda ham Alisher Navoiy va unga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar dunyo yuzini ko‘rdi. Shuning bilan birgalikda Alisher Navoiy xotirasini saqlash maqsadida ko‘plab shaharlarda Alisher Navoiyga atab haykallar bunyod etildi. Bular quyidagilar:

Yaponiya-Tokio-2004; Rossiya-Moskva-2002; Ozarbayjon-Boku-2008; Xitoy-Shanxay-2017; Janubiy Koreya-Seul-2021; Turkmaniston-Ashhabod, Qirg‘iziston-O‘sh, Tojikiston-Dushanbe; AQSh-Vashington va hokazo.

Xulosa

Alisher Navoiy siymosini qadrlash u zotning ilmiy merosini asrab avaylash va unda o‘sib kelayotgan yosh avlodni bahramand qilish g‘oyatda zarur va muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar va millatning o‘z qadriyatlari va an‘analariga ijobiy munosabatda tarbiyalash va shu yo‘lda ildam qadamlar tashlash uchun Alisher Navoiyni yanada ko‘proq anglash, tushunish va mutolaa qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ALISHER NAVOIY HAQIDAGI AYRIM ASARLAR HAQIDA (cyberleninka.ru)
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. “O‘qituvchi”. T.: 2008
3. Xondamir. Makorim ul-axloq. G‘afur G‘ulom. T.: 2015
4. Bahromjon o‘g‘li, O. A. (2023, June). ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFIY QARASHLARIDA AHMAD YASSAVIYGA BO‘LGAN MUNOSABAT. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 6, pp. 244-247).